ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

Taraqqiyot strategiyasida “Interaktiv ta’lim texnologiyalari” asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish.

Nazarova Dilnoza Eraliyevna
Nizomiy nnomidagi O’zbekiston milliy pedagogika universiteti
Tarix kafedrasi dotsenti, tarix fanlari falsafa doktori (PhD).
Abdumo’minova Mubina Xurshidjon qizi
Ta’lim va tarbiya nazariyasiva metodikasi
(Maktabgacha ta’lim) 1-kurs magistri

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo’ljallangan “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” doirasida belgilangan ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish jarayonida interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati yoritiladi. Interaktiv metodlarning psixologik-pedagogik asoslari, nutqni rivojlantirishga ta’siri, zamonaviy o‘yinli, AKT va multimedia vositalarini qo‘llashning samaradorligi tahlil qilinadi hamda amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: interaktiv ta’lim texnologiyasi, maktabgacha ta’lim, nutqni rivojlantiriah, taraqqiyot strategiyasi, kreativ fikrlash, o’yinli texnologiyalar.

Abstract: The article highlights the importance of using interactive educational technologies in the process of speech development in preschool children based on the priority tasks aimed at improving the quality of education, defined within the framework of the "Development Strategy of New Uzbekistan" of the Republic of Uzbekistan for 2022-2026. The psychological and pedagogical foundations of interactive methods, their influence on speech development, the effectiveness of using modern gaming, ICT, and multimedia tools are analyzed, and practical recommendations are given.

Keywords: interactive learning technology, preschool education, speech development, development strategy, creative thinking, game technologies.

Аннотация: В статье освещается важность использования интерактивных образовательных технологий в процессе развития речи у детей дошкольного возраста на основе приоритетных задач, направленных на повышение качества образования, определенных в рамках "Стратегии развития Нового Узбекистана" на 2022-2026 годы. Проанализированы психолого-педагогические основы интерактивных методов, их влияние на развитие речи, эффективность использования современных игровых, ИКТ и мультимедийных средств, а также даны практические рекомендации.

Ключевые слова: интерактивные образовательные технологии, дошкольное образование, развитие речи, стратегия развития, креативное мышление, игровые технологии.

Maktabgacha yosh insonning shaxs sifatida shakllanishi uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Aynan shu davrda nutq faol ravishda rivojlanadi va bola atrof-muhit bilan muloqotga kirishishni o‘rganadi. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo’ljallangan “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida”da maktabgacha ta’lim tizimida zamonaviy o‘qitish texnologiyalarini keng joriy etish, pedagoglar malakasini oshirish va bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish birinchi darajali vazifalar sifatida belgilangan.

Hozirgi kunda ta’lim tizimini yanada isloh qilish, o’sib kelayotgan yosh avlodga shart-sharoitlar yaratish, ularni har tomonlama yetuk va mukammal bilim olishiga ko’maklashish bu stratediyaning muhim ustuvor yo’nalishlaridan hisoblanadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

“Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ning 4-yo‘nalishida ya’ni “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlangan bo‘limida 2024-2025 o'quv yilining yakuniga qadar 6 yoshli bolalarning maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 100 foizga yetkazish, 7 mingdan ziyod yangi NMTTni tashkil etish, maktabgacha ta’lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, maktabgacga ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish va pedagog kadrlarning malakasini oshirishga qaratilgan vazifalar belgilangan.

Demak, interaktiv ta’lim texnologiyalari maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishida juda katta samaradorlikka ega. Chunki interaktiv ta’lim — bu o‘quvchilarning o‘zaro muloqotga, faol fikrlashga, mustaqil izlanishga asoslangan o‘qitish jarayonidir.

Interaktiv metod-bu tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o’rtasida faol muloqot, hamkorlik, mustaqil fikrlash va amaliy faoliyat asosida tashkil etiladigan ta’lim usulidir. Bu metodlarda tarbiyalanuvchi markazda bo’ladi tarbiyachi esa yo’naltiruvchi rolni o’ynaydi. Taraqqiyot strategiyasida maktabgacha ta’lim va nutq rivojlantirishga qo’yilgan talablardan quyidagilar ustuvor yo’nalish bo’lib belgilangan:

- maktabgacha ta’limda innovatsion metodlarni keng joriy etish;
- pedagoglar faoliyatida interaktiv texnologiyalar ulushini oshirish;
- bolalarning kommunikativ madaniyatini shakllantirish;
- nutq rivojlanishi darajasini monitoring qilish va individual yondashuvni tatbiq etish;
- raqamli vositalar orqali integratsiyalashgan ta’limni yo‘lga qo‘yish. Bu talablar interaktiv texnologiyalarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Interaktiv texnologiyalar asosida nutqni rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari xam mavjud. Ular:

1. O’yin texnologiyalari- bolaning asosiy psixologik ehtiyoji bo‘lganligi sababli nutqni rivojlantirishda samarali usul hidoblanadi.

“Sehrli quticha”- predmetni topish orqali so‘z boyligini kengaytiradi, “Rasmga qarab hikoya tuz”- monologik nutqni rivojlantiradi. O‘yin davomida bola ko‘p gapiradi, savol beradi, o‘ylaydi, muloqot qiladi — bu esa nutqni tez rivojlantiradi.

2. Multimedia va AKT imkoniyatlari- Interaktiv ekranlar, audiokitoblar, animatsiyalar bolalarda e’tibor va eslab qolish jarayonini yaxshilaydi. Unda: qahramonlar ishtirokidagi hikoyalarni tinglab qayta aytish, multfilm kadrlaridan ketma-ketlik yaratish va ovoz farqlarini tinglab aniqlash kabilar.

3. Savol-javob”, “Muammoli vaziyat”, “Aqliy hujum” metodlari- dialogik nutqni rivojlantirish, fikrni ifodalashga o‘rgatish va mustaqil qaror qabul qilish malakalarini shakllantirish.

Bundan tashqari yana shuni ta’kidlashimiz joizki, interaktiv metodlar yordamida nutqning asosiy komponentlarini shakklantirishda muhim roy o’ynaydi:

a)Fonetik rivojlanish- tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, shevachilikni bartaraf etish uchun tovush o‘yinlari, ritmik mashqlardan keng foydalaniladi.

b) Leksik rivojlanish- interaktiv kartochkalar, predmetlar bilan ishlash, rasmli topshiriqlar orqali so‘z boyligi kengaytiriladi.

c) Grammatik rivojlanish- gap tuzish, gapni davom ettirish, shaxs va predmetlarni ta’riflash mashqlari yordamida amalga oshiriladi.

d) Monologik va dialogik nutq- hikoya tuzish, suhbatlar tashkil etish, rolli o‘yinlar orqali mustahkamlanadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

e) Nutqning pragmatik komponenti- bola vaziyatga mos gapirishni, o‘z fikrini muloqotda erkin aytishni o‘rganadi. Shu kabilar maktabgacha yoshidagi bolalarda nutqning asosiy komponentlarini shakantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Interaktiv metodlarning asosiy turlari- 1)guruhlarda ishlash, 2)aqliy hujum, 3)bumerang metodi, 4)muammoli vaziyat yaratish, 5)keys-stadi, 6)didaktik o’yinlar, 7)rollar o’ynash, 8)debat yoki bahs metodlari, 9)visual va ijodiy metodlar ya’ni insert metodi, 10)klister, 11)nilufar guli metodi, 12)concept map (konseptual xarita) 13)hamkorlik va kommunikativ metodlar, 14)juftlikda ishlash, 15)intervyu metodi, 16)T-chiziq yoki Venn diagrammasi kabi metodlardan juda keng foydalaniladi.

Interaktiv metodlarning pedagogik va psixologik afzalliklari xam mavjud. Bu jarayonda pedagogic afzalliklari shulardan iboratki:

Har bir bola faol ishtirok etadi, ta’lim jarayoni qiziqarli bo’ladi, muloqot qilish ko’nikmasi rivojlanadi, mustaqil fikrlash kuchayadi, jamoaviy ishlash malakasi shakllanadi.

Psixologik afzalliklari esa quyidagilardan iborak: stress kamayadi, bolada o’ziga bo’lgan ishonch ortadi va emotsional barqarorlik shakllanadi.

Xulosa. Taraqqiyot strategiyasi doirasida maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, xususan interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bolalarning nutqiy, intellektual va ijodiy salohiyatini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda. Interaktiv metodlar bolaning tabiiy rivojlanish mexanizmlariga mos bo‘lgani sababli nutqni tezroq, samaraliroq va barqaror rivojlantiradi. Pedagog interaktiv usullarni to‘g‘ri tanlagan va ijodkorlik bilan qo‘llagan taqdirda ta’lim sifati sezilarli darajada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019.
3. Usmonova, D. “Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi”, 2019
4. Khan, A. “Early Childhood Education and Communication Development”, 2020.